

## ERON SOSONIYLARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Abdullayev Ramazon**

*Email: ramazonabdullayev872@gmail.com +998888031118*

*Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti talabasi*

**Qurbonov Hasan**

*Email: [samadkdkdksks@gmail.com](mailto:samadkdkdksks@gmail.com)*

*+998938880539*

**Annotatsiya:** ushbu maqolani yozishdan maqsad Eronda hukmronlik qilgan Sosoniylar davlatining tashkil topishi va bosqinchilik yurishlari, Xusrav I Anusher von (531-579) davrida o'tkazilgan islohotlar to'g'risida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Qobul daryosi, ArtabonV, Garib, Dirxam, Savaron, Vazurg, Ormizdagon tekisligi, Aleksandr Sever, Ktesifon, Xusrav I islohotlari, Soliq islohoti.

Davlatning tashkil topishi. Sosoniylar Imperiyasi milodiy VII-VIII asrlardagi ilk musulmonlar (Arab xalifaligi) istilosidan avval, Eronda IV asrdan oshiqroq vaqt davomida hukmronlik qilgan va eng uzoq umr ko'rgan so'nggi fors davlati imperiyasi hisoblanadi. Parfiya davlatining Arshakidlar sulolasi o'rnini egallagan Eron Sosoniylar sulolasi (milodiy 224-651-yillarda) mavjud bo'lgan. Sosoniylar o'zlarini Ahamoniylar Imperiyasi vorisi deb bilganlar va tarixda o'zining qudrati va yirikligi bilan yorqin o'chmas iz qoldira olgan. 224-yildan Yangi Fors shohligini boshqargan. Davlatning asoschisi Papakning og'li va Sosonning nabirasi Ardasher bo'lib Fors viloyatining Staxre shahridagi Anaxid ma'budasi ibodatxonasining merosxo'r qo'riqchilari naslidan bo'lgan. Ardasherning otasi Papak dastlab Xir deb atalgan mintaqaning hukmdori bo'lgan. Papak va uning to'ng'ich o'g'li SHopur barcha pars xalqlari ustidan hukmronligini o'rnatadi. Biroq Papakning o'limidan so'ng Darabgert gubernatori Ardasher akasi SHopur bilan hokimiyat uchun kurash boshlashga majbur bo'ladi. Manbalar shuni ko'rsatadiki SHopur ukasi bilan uchrashuvga ketayotganida ustiga bino tomi qulab tushib o'sha yerning o'zida o'ldiriladi. 208-yilga kelib Ardasher o'zini Pars viloyati hukmdori deb elon qiladi. Ardasher shoh deb elon qilingandan so'ng, o'z davlati poytaxtini Parsning janubiga ko'chiradi. Pars ustidan hukmronlik o'rnatgandan so'ng Ardasher tezda o'z hududini kengaytirishni boshladi va fors knyazlaridan sadoqat talab qilib, qo'shni viloyatlar ustidan ham nazoratni o'z qo'liga oladi. Sosoniylar davlati III asrning boshida o'z davrining yirik davlatlaridan biri hisoblangan Parfiya saltanatining parchalanishi natijasida tashkil topdi. O'zaro ichki kurashlar va Rim davlati bilan olib borilgan urushlar natijasida III asr boshida Parfiya davlati Ancha kuchsizlangan edi. Sosoniylar sulolasining asoschisi va birinchi hukmdori

Ardasherning bobosi Soson davlat poytaxti bo'lgan Istaxr shaxridagi bosh ibodatxonaning kohini bo'lgan. Bu davrda Eron hududi Parfiya qo'l ostida nomigagina birlashtirilgan edi. Eron yerlarini yangiddan birlashtirish Fors viloyatidan boshlandi. Forsdagi Darabgerd qa'lasining hukumdori Ardasher (soson urug'idan) bir necha hokimliklarni birlashtirib, Eronning Janubiy qismini o'z qo'liga oldi va u tez orada butun Fors, Kirmon va Geyni o'ziga bo'ysundiradi so'ng Parfiya podshosi Artabon V (209-224) ga qarshi chiqadi. Dastlab Ardasher I faoliyati Artabon V ni unchalik xavotirga solmaydi. 224-yilning 28 -aprel kuni Ardasher Ormuzdagon tekisligida Artabon V ni mag'lubiyatga uchratadi. Sosoniylarning g'alabasi Parfiyaga jiddiy o'z tasirini o'tkazadi. Shu davrdan boshlab Eronda V asrdan beri davom etib kelayotgan Parfiya davlati hukmronligiga chek qo'yiladi. Oradan 2 yil vaqt o'tgach Ardasher tantanali tarzda podshohlik tojini kiydi va SHahanshoh ( "SHohlar shohi" ) unvoniga ega bo'ldi . Ardasher I davrida Midiya, Ozarbayjon, Seiston, Xuroson va Marv vohalari bo'ysundirildi. Natijada mamlakatning chegarasi ( shimolda Kasbiybo'yi viloyatiga ), ( janubda Fors ko'rfaziga ), ( sharqda Qobul daryosi vodiysigacha borib yetadi. Davlat o'z qudrati cho'qqisiga erishgan vaqtda uning hududi butun Eron va Iroqni qamrab olib, Anadolu, Misr, Pokiston va Arabistonning ayrim qismlaridan, Kavkaz va Markaziy Osiyo hududlarigacha borib yetgan.

Rim Imperiyasi bilan munosabatlar: Ardasher I davlat poytaxtini Istaxr shaxridan Dajla daryosining ikki qirg'ogi bo'ylab joylashgan Ktesifonga ko'chiradi. 230-yilda Ardasher I qo'shinlari bilan Mesopotamiya va Kichik Osiyo hududiga bostirib kiradi. Bu hududlar Rim saltanati qarashli edi. 232-yilda Rim Imperatori Aleksandr Sever kata qo'shin bilan Shimoliy Mesopotamiyaga yurish qiladi. Ardasher I qo'shinlari Rim legionlari bilan uzoq vaqt qonli urushlar olib bordi. Ardasher I ning Mesopotamiya va Armanistonga egalik qilish uchun Rim Imperiyasi bilan SHarqda olib borgan urushlari natijasi Sosoniylar davlati hududi kengayishi bilan tugadi.

Xususan SHarq bilan G'arbni bog'lagan savdo yo'llari ustidan hukmronlikka intilish uchun ikki tomon ham Kavkazorti mamlakatlarini egallashga harakat qildi Armaniston va Gruziyaning egallanishi Eronni Qora dengiz sohillariga olib chiqdi. Ikki daryo oralig'i va Armaniston uchun Rim davlati bilan kurashni Ardasher bosh lab bergan . Uning o'g'li SHopur I ( 241-272) bu yurishlarni davom ettirdi. SHopur I Rimliklarning Armaniston hududiga bostirib kirganligini bahona qilib, keng miqyosda Urush harakatlarini boshlaydi va bir necha kata g'alabalardan so'ng Kichik Osiyoga bostirib kirdi, 256-yilda Antioxiya egallandi, 260-yilda 60 000 minglik Rim qo'shini Barbalisosda mag'lub etiladi. Bu Sosoniylarning Rimliklar ustadan erishgan ikkinchi yirik g'alabasi edi. Naqshi Rustam bitiklarida bu jangda Rim imperatori Valerian (253-260) asir tushganligi yozib qoldirilgan. Ba'zida Eron va Rim o'rtasida ikki tarafni ham qoniqtiradigan shartnomalar ham tuzilar edi. Ammo bu holat ko'pinch sulh shartlarining buzilish hollari bilan tugar edi. Eron va Rim imperiyalari o'sha davrning



Ikkita yirik universal kuchi hisoblanardi. Ikki o'rtada bo'lib turadigan nizolar va urushlar asosan diniy sabablarga ko'ra bo'lib turar edi. Ya'ni Armanistonning Rim imperiyasi rasmiy dini bo'lgan Nasroniylikni qabul qilishi va Armanlarning rimliklar tomonidan qo'llab quvvatlanishi natijasida boshlangan. SHuningdek Armaniston uzoq vaqt davomida Eronning bir qismi bo'lib kelgan bo'lsada eronga qaraganda ko'proq rimliklar tarafida bo'lgan. SHu sababli Sosoniylar ham armanlarga qarshi to'g'ridan-to'g'ri kurash olib bordi va tinimsiz ravishda bosim o'tkazib turdi. SHopur I tashqi siyosati bu bilan cheklanib qolmadi. Uning qo'shinlari 262 -263 yillar davomida Suriya, Armaniston, SHimoliy Mesopotamiya hududlarini bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. SHopur I birinchilardan bo'lib Turon hududlariga ham bosqinchilik yurishlarini uyushtirdi.

Bu davrda mazkur hududda hukmronlik qilayotgan Kushon davlati tarkibida bo'lgan Hirot, Seiston, Marv, Girkaniya kabi Kushonlarning shahar va viloyatlari Sosoniylar tomonidan bosib olindi. SHuningdek SHopur I mamlakatda bir nechta islohotlarni amalga oshirdi. Qurilish ishlarining yaxshi yo'lga quyilishi natijasida irrigatsiya inshootlari soni ortdi, mamlakatda yangi shaharlar bunyod etildi. Undan keyin hukmronlik qilgan Sosoniy hukmdorlar tarixda sezilarli iz qoldirmadi. Buni SHopur I ning vafotidan so'ng 20 yil davomida mamlakatni uch sosoniy hukmdor boshqarganligi ham isbotlaydi. Sosoniylar davlati SHopur II (309-379) davrida yuksak darajada erishdi. SHopur II Eron tarixidagi eng uzoq hukmronlik qilgan monarx (shoh) sifatida tarixda qoldi. Uning 70 yillik boshqaruvi davrida mamlakat harbiy qudrati oshdi, davlat hududi yanada kengaydi. SHopur II qattiq diniy siyosat olib bordi. Uning davrida Zardushtiylikning muqaddas matnlari bo'lgan Avesto to'plamlarini yig'ish ishlari yakunlandi, nasroniylar qattiq taqib ostiga olindi, yaxudiylarga nisbatan esa do'stona munosabatda bo'lindi.

Sosoniylar sulolasining gullab yashnagan davri Ardasher I (224-239), SHopur I (239-272), SHopur II (309-379), Yazdigard II (439-457), Feruz (459-484) va Xusrav I Anushervon (531-579) lar hukmronlik qilgan davrlarga tog'ri keladi. V asning ikkinchi yarmida Eron qo'shinlari Xioniylar, Kidariylar, va Eftaliylar bilan ham qattiq urushlar olib borib juda ko'p marotaba bu davlatlar bilan to'qnash keladi. Shunday qilib, III asr ning ikkinchi yarmi va IV asrda Eron Sosoniylari SHarqdagi eng qudratli davlatga aylangan. Ammo V asrning ortalaridan boshlab Eftaliylar va Kidariylarning bergan zarbalaridan asta-sekin kuchsizlanib, hatto Eftaliylar davlatiga qaram bo'lib o'lpon to'lashga ham majbur bo'ladi.

Xusrav I hukmronligi davrida Eron: Eron Sosoniylari davlati o'z taraqqiyotining cho'qqisiga Xusrav I Anushervon (531-579) hukmronligi davrida erishdi. Xusrav I davrida mamlakatda bir qator islohotlar o'tkazildi. Aynan shu sababdan Xusrav I Eron tarixiga yirik islohotchi "O'lmas" nomini olgan hukmdor sifatida iz qoldirdi

Soliq islohoti: Uning buyrugil bilan ekin ekiladigan hamma yerlarning hisobi olinib, yiliga ikki marta olinadigan “Yer solig’i” joriy etildi. Islohotga qadar yer solig’i Xarag natura shaklida olingan bo’lib, uning miqdori hosilning 1/8 dan 1/3 qismigacha bo’lgan. Shunday qilib soliq miqdorini har yili hosilga qarab belgilaydigan bo’ldilar. Yer solig’ini to’lash uchun o’lchov birligi sifatida 1 Garib (taxminan 0,2-0,3) ga olindi va yer solig’i shu o’lchov birligiga asoslangan bo’lgan. Masalan 1 garib maydonga bug’doy yoki arpa ekkan odam 1 dirham soliq to’laydigan bo’ldi. To’rt tub xurmo yoki olti tub zaytun daraxti uchun esa 7 dirham, 1 garib uzumzor uchun 8 dirham soliq solingan. Mamlakatda yer solig’idan tashqari Jon solig’i Gezit pul bilan almashtirildi. Kohinlar, Zodagon amaldorlar Harbiylar va umuman barcha davlat xizmatida bo’lganlar Jon solig’idan butunlay ozod qilindi. Lekin shunday bo’lsada ular ma’lum miqdorda Yer soligi to’lab turgan. Jon solig’i Gerit esa Eronning 20 yoshdan 50 yoshgacha bo’lgan aholisidan yiliga mumkin qadar imkoniyat darajasiga qadar 4, 6, 8, 12 dirhamgacha to’lashi belgilangan.

Harbiy islohot: Moliyaviy tomondan ancha yaxshilanib olgan Xusrav I endi mamlakatda harbiy islohotni ham amalga oshirdi. Doimiy tarzda xizmat qiladigan armiyaga asos soldi. Xusrav I hukmronligiga qadar jangchilar faqat harbiy harakat paytida tinch aholidan yig’ib olinar edi. Tashkil etilgan qo’shin yirik 12 bo’linmaga bo’lindi. Qo’shinning tarkibida og’ir qurollangan qismning soni ortib Savaron deb atalgan. Bundan tashqari doimiy tarzda xizmatda bo’lgan qo’shindagi jangchi sarkardalarga davlat xazinasidan oylik maosh ham ajratiladi.

Ma’muriy islohot: ma’muriy islohotga ko’ra shahanshoh mamlakatni to’rtta qismga ajratdi. Har bir qismning boshlig’i Padospan bo’ldi, harbiy islot natijasida ajratilgan to’rt qimning harbiy boshliqlari esa Ispexbetlarga bo’ysundirildi. Islohot ga qadar Eron ma’muriy jihatdan urug’ zodagonlari va vassallar tobe hukmdorlar tomonidan boshqarilar edi. Shunday qilib islohot natijasida barcha davlat xizmat chilari, ayonlar podsho ko’rsatmasi va hoxishiga qarab tayinlanadigan bo’ldi. Sud Ishlari bilan shug’ullanish vakolati ham shohga berildi. Vazurg (bosh vazir) ning ayrim vakolatlari qisqartirildi. SHunday qilib Xusrav I o’tkazgan islohot natijasida mahalliy va yuqori toifadagi amaldorlarning hokimiyati cheklandi. Bular Xusrav I ning mutlaq va Yakka hukmronligini o’rnatishda yordam berdi.

Tashqi aloqalar: Mamlakatda bir necha muhim islohotlarni amalga oshirishdan tashqari Xusrav I mamlakat tashqarisida ham faol tashqi siyosat olib bordi. Asosan tashqi siyosatda mamlakatning eng katta raqiblaridan bo’lganlar Vizantiya shuningdek Eftaliylar, Yaman kabi davlatlariga qarshi tinimsiz urushlar olib bordi. 560-yildan boshlab Xusrav I Eftaliylar davlatiga qarshi keng miqyosdagi harbiy harakatlarni olib boradi. Bu yurishlar davomida Xusrav I Turk Xoqonligi bilan faol diplomatik aloqalar olib boradi. Bu davrda Turk Xoqonligini Mug’anxon (553-572) boshqargan. Uning davrida Turk xoqonligi xar tomonlama yuksalib, butun O’rta



Osiyoda siyosiy hukmronligini o'rnatadi. Mug'axongacha ham Buminning ukasi Istami xoqonlikning G'arbiy qismini boshqarar edi. Istami akasi vafotidan keyin 555-yilda Toshkent va uning atroflarida Qozog'iston, Yettisuv va Xorazm xududlarida mustahkam o'rnashib oladi. Endi Turk xoqonligining chegarasi bevosita Eron hududlari chegaralariga yaqinlashib qoladi. Natijada ikki o'rtada manfaatlarning o'zaro to'qnashuvi sodir bo'ladi. Xusrav I Anushervon va Turk xoqonligi ham o'z davlati hududini Eftaliylar yerlari hisobiga kengaytirishni o'ylardi. Dastlab ikki davlatning ham munosabatlari yaxshi edi. Hatto Xusrav I turk malikasiga (Istaming qiziga) uylangan edi. Biroq Turklar tomonidan 563-567-yillarda Eftaliylarni bo'ysundirilganligidan so'ng ikki o'rtada vaziyat keskinlashadi. Hatto Eron Turk xoqonligining O'rta Osiyodagi hududlariga ham da'vogarlik qiladi. Bu esa shubhasiz xoqonlikning Eron bilan bir necha bor urushlar olib borishiga sabab bo'ladi. Ammo Eron shohi Xusrav I bu urushda yengiladi. Eron shohlari Turk xoqonligiga 400 ming Vizantiya tillasi hajmida tovon to'lashga majbur bo'ladi.

Sosoniylar inqozi: 579-yilda Xusrav I Anushervon vafotidan keyin taxtga uning og'li Xurmuzd IV(579-590) o'tiradi. Xurmuzd IV ning hukmronlik yillari Vizantiya bilan to'xtovsiz urushlar, Xzar va turklarga qarshi yurishlar, amaldorlar, zardusht koxinlari va xristian aholiga qarshi kurashlar bilan o'tdi. Vizantiyaliklar Armaniston va Kavkazning katta qismini forslardan tozalab, Mesopotamiya chegarasidagi ko'plab qa'lalarni egallaydi. Bir vaqtning o'zida turklar ham butun Xorazm hududini egallab, Girkaniyagacha boradi. Ayni vaqtda esa Xurmuzdning shavqatsiz va adolatsiz hukmronligi oqibatida unga qarshi bir qancha isyonlar sodir etiladi. Bu esa Sosoniylarni bir qancha ittifoqchilaridan mahrum etdi. 589-yilda sarkarda Bahrom CHubin boshchiligida tarixdagi eng yirik q'zg'olonlardan biri bo'ldi. Bu paytda Eron davlati inqiroz holatiga kelib qolgan edi. Natijada Xurmuzd IV taxtdan ag'dariladi. undan so'ng esa Xusrav II Parfiz (590-628) va uning o'g'li Kubod II ning sakkiz oylik hukmronligidan so'ng esa taxtga Kubod II ning yetti yoshli o'g'li Ardasher III (621-630) o'tiradi. Xusrav II ning qizi Buron (630-631), Peruz II va Xusrav II ning ikkinchi qizi malika Azarmedoxt (631-632)lar birin ketin qisqa vaqt davomida hukmdorlik qiladilar. Sosoniylar sulolasining so'ngi vakili Yazdigard III davrida mamlakat ancha zaiflashadi va Sosoniylar davlatining inqirozi yaqqol sezilib qoladi. Yazdigard III Mamlakatni (632-yildan 651-yilga qadar) idora qiladi. Yazdigard III o'zidan oldin hukmronlik qilgan podshohlarning siyosatlarini davom ettirishga harakat qiladi. Aynan Yazdigard III hukmronligidan boshlab Sosoniylar Arab Xalifaligiga yetarli darajada qarshilik qila olmadilar. Mamlakat ichkarisidagi o'zaro urushlar, tanazzul va ziddiyatlar davlatni tobora holdan toydirdi. 637-yilda Arablar Qodisiya jangida g'alaba qozonib Sosoniylar poytaxti Ktesifon shahrini egallaydilar. 642-yil bo'lgan "Navoxand jangida"gi mag'lubiyatdan so'ng Sosoniylar qo'lida faqat shimoliy va sharqiy viloyatlar qoladi. Yazdigard III 651-yilda Marv atrofida bo'lib o'tgan jang

larning birida o'ldiriladi. SHu tariqa deyarli 4 asrdan ortiqroq ( 232-651 ) 459 yil vaqt davomida mavjud bo'lgan Eron Sosoniylar davlati barham topadi. Fors davlatining qadimgi poytaxti Istaxr qulagandan so'ng(651) butun Fors hududi arablar hukmronligi ostiga o'tdi va uni birin ketin arab hukmdorlari boshqara boshladilar. Fors hududida keyingi davlat birlashmalarining paydo bo'lishi XV-XVI asrlar ya'ni Ismoil I tomonidan Safaviylar davlati tashkil etilgandan keyin ro'y berdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rjabov Q., Qandov B. Jahon tarixidagi sullola va davlatlar: qisqacha siyosiy tarixi va muhim sanalari( Eng qadimgi davrlardan 1795-yilgacha )- T., 2015.
2. Vxidov SH., Qodirov A. SHarqning mashxur sulolari. – T 2013.
3. Keril va Mefodiyning Mega Ensiklopediyasi. “Xusrav Anushervon”
4. Antik davrninn 100 ta qo'mondoni tarixi sayti:
5. Ruzov Dunyoning barcha monarxlari: Qadimgi SHarq ma'lumotnoma. M., 2006 Sosoniylar:
6. Umarov Sardor Y., ( SHarq mamlakatlari o'rta asrlarda ) Jahon tarixi :